

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TEMIR DAVRI HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI TARIXI SAHIFASI

*Sadaddinov Sharafaddin Xaytboy o'g'li, Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi*
**HISTORY PAGE OF IRON AGE SCULPTURE IN THE
LOWER AMU DARYA REGION**

*Sadaddinov Sharafaddin Khaytboy o'g'li, teacher of the Department of
History of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni*

СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ СКУЛЬПТУРЫ ЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА НИЖНЕЙ АМУДАРЫИ

*Садатдинов Шарафаддин Хайтбой оглы, преподаватель
кафедры истории Ургенчского государственного университета
имени Абу Райхона Беруни*



<https://orcid.org/0009-0008-0641-7663>
e-mail:
sharofaddinsadaddin
ov2821@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida temir davri haykaltaroshlik san'ati tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zadneprovskiy Yu.A., Xuff D., Shaydullaev Sh.B., Itina M.A., Tolstov S.P., Salkin V.I., Vaynberg B.I., Yablonskiy L.T., Matyaqubov X.X., Xorazm, Dalvarzin, Jarqo'ton, Zarafshon, Toshkent, Quysisoy, Uygarak, Sakarchaga.

Abstract: The article covers the history of Iron Age sculpture in the right and left bank regions of the Amu Darya.

Keywords: Zadneprovsky Yu.A., Khuff D., Shaydullaev Sh.B., Itina M.A., Tolstov S.P., Salkin V.I., Weinberg B.I., Yablonsky L.T., Matyakubov Kh.Kh., Khorezm, Dalvarzin, Jarkuton, Zarafshon, Tashkent, Kuyisay, Uygarak, Sakarchaga.

Аннотация: В статье освещена история скульптуры железного века в правобережье и левобережье Амударьи.

Ключевые слова: Заднепровский Ю.А., Хуфф Д., Шайдуллаев Ш.Б., Итина М.А., Толстов С.П., Салкин В.И., Вайнберг Б.И., Яблонский Л.Т., Матьякубов Х.Х., Хорезм, Далварзин, Жаркутон, Зарафшон, Ташкент, Куйсай, Уйгарак, Сакарчага.

KIRISH. Xorazm vohasi uning janubiy chegarasiga tutashib ketgan Sariqamishbo'yi hududida temir davrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanish harakteriga ega bo'lgan. Tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonning Farg'ona vodiysida Dalvarzin, Surxondaryo viloyatida Jarqo'ton yodgorliklaridan temirdan qilingan qurollar namunalari olingan, ular mil.avv. IX-VIII asrlarga oid bo'lgan[1.1966-S 199-200]. Mazkur tarixiy davrda Xorazm, Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasida xo'jalik mashg'ulotlarini olib borgan bronza davri aholisi vorislari bronza ashyosidan ishlangan mehnat qurollaridan keng foydalanganlar. Ular temir

ashyosi bilan allaqachon tanish bo'lgan bo'lsalar ham, ularni ishlov texnologiyasi sohasida tajribasi Jarqo'ton aholisiga qaraganda ancha uzoqda bo'lgan[2.1999-S 20].

Janubiy Oqchadaryo hududida joylashgan Yakkaparsan-2 yodgorligida o'rnashgan aholi bronza ashyosini eritib, undan hosil bo'lgan quymadan maxsus yasalgan qoliplar yordamida kamon o'qlari va mehnat qurollaridan kundalik faoliyatlarida keng foydalanganlar[3.1963-s 160]. Yodgorlik uy-xonalaridan mayda shoxli uy hayvonlari va ot haykalchalari olinganligini qayd qilish joiz. Xorazm vohasida bronza davri jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishiga xos bo'lgan urbanizatsion jarayonning

iliq shabadalari qamrab olishini inobatga olib, ikki tarixiy davrga ajratgan holda yoritish maqolada maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryo o'ng va so'l hududlarida aholi tomonidan qoldirilib ketilgan turar joylarda keng miqyosda arxeologik tadqiqotlarni olib borish mobaynida olingan moddiy ashyolar temir davriga mansub bo'lgan. Masalan, S.P.Tolstovni Ko'zaliqir yodgorligida temir ashyosidan mehnat qurollari

qoldiqlari olingan, lekin inson, uy chorvachiligi haykallari namunalari olinmagan[4.1948-S.44-45]. M.G.Vorobyova janubiy Oqchadaryo havzasida o'troq-ziroatkor aholi tomonidan binokorlik bilimi asosida qurilgan Ding'ilja yodgorligidan loydan yasalgan qo'y, echki va ot haykalchalari o'rganilgan. Tadqiqotchi qayd qilishicha mil.avv.VI-V asrlarda o'ng sohilda Ding'ilja, so'l sohilda Ko'zaliqir aholisi turmush tarzida chorvachilik xo'jaligi darajasi 1-jadvalda quyidagicha qayd qilingan[5.1973-220 s].

1-jadval	Ko'zaliqir - so'l sohil	Ding'ilja - o'ng sohil
Yirik shoxli hayvon	32,6	21,7
Kichik hajmli	49,7	61,7
Cho'chqa	3,4	2,5
Eshak	4,1	4,1
Ot	8,2	5,9
Tuya	2,0	4,1

Jadvalda qayd qilingan ko'rsatkichlarga qaraganda Ding'ilja qishlog'ida istiqomat qilgan aholi yirik shoxli uy hayvonlarini boqish o'rniga mayda yengil tuyoqli hayvonlarni boqishga moyil bo'lganligi kuzatiladi. O'ng sohil hududi 150 ming gektar turar joylar bilan bandligi, qishloq xo'jalik ozuqa mahsulotlarini yetishtirishda muammolar mavjudligini aholi inobatga olgan. Ko'zaliqir aholisi uchun yirik va kichik tuyoqli hayvon va otni boqish Dovdon irmog'i atroflari 10 km keng maydonida imkoniyat katta bo'lgan. Shu jihatidan olganda Amudaryo so'l sohili hududi aholining joylashish

holati o'ng sohilga qaraganda keng geografik hududdan iborat bo'lgan. Bunday imkoniyatdan Quvisoy manzilgohida (12ta) istiqomat qilgan yarim o'troq-chorvador aholi chorva mollarini saqlash, ozuqa-mahsulotlari zahirasiga ega bo'lishi borasida foydalangan. B.I.Vaynbergning qayd etishicha, Amudaryoning Dovdon irmog'i quyi havzasi sohili hududiga ulangan Quvisoy balandligi atroflari o'simlik dunyosiga boy bo'lgan, asosiy mashg'uloti chorvachilik xo'jaligi bo'lgan. Tadqiqotchi ishlab chiqqan 2-jadvalda chorvachilik xo'jaligi manzarasi quyidagicha:

2-jadval	Quvisoy	Ko'zaliqir	Ding'ilja
Yirik shoxli	28,9	32,6	21,7
Mayda shoxli	40,1	49,7	61,7
Ot	18,69	8,2	5,9
Tuya	7,47	2,0	4,1
Eshak	2,8	4,1	4,1
Cho'chqa	1,86	3,4	2,5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Quvisoy aholisi "Qayr" dehqonchiligini olib borish bilan birga (xum qoldiqlari, don yanchgichlar olingan), uy chorvachiligida mayda shoxli hamda ot va tuya parvarish qilishga e'tibor berilgan [6.1979-C.23]. Tadqiqotchi V.I.Salkin monografiyasida Xorazmni Sharqiy Yevropa va O'rta Osiyo aholisi chorvachiligi bilan Quvisoy yodgorligi aholisida chorvachiligini solishtirish jadvalida Quvisoy

balandligi atroflari juda qulayligiga e'tiborni qaratgan. [7.1966-C.109] Tadqiqotchi B.I.Vaynberg janubiy Oqchadaryo havzasida Yakkaparon-2 aholisi chorvachiligida mayda shoxli hayvonlar ustunligi qayd qilmaydi[8.1977-S.185]. Amudaryo o'ng sohili hududiga ulanib ketgan Qizilqum paleo gidrografiya hosil qilgan Sirdaryo Inkordaryo irmog'i quyi havzasida ko'chmanchi-chorvador aholi tomonidan

qoldirilgan Uygarak qabristonida joylashtirilgan marhumlar atrofida mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, ot anjomlari, taqalar va ot haykalchalari parchalari o'rganilgan[9.1996-S.28]. Bunday moddiy ashyolar Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan Amudaryoning Dovdon irmog'i sohilida Sakarchaga qirida joylashgan chorvador aholi tomonidan qoldirilgan qabrga joylashtirilgan marhum atrofidan ham topilgan [10.1985-S.559]. O.A.Vishnevskaya va Ya.T.Yablonskiy ko'chmanchi-chorvador qabilalar tomonidan qoldirib ketilgan Uygarak va Sakarchaga qabrlarida moddiy ashyolarga e'tibor bergan. X.X.Matyaqubov mil.avv.VII-V asrlarda o'troq va chorvador aholida yengil tuyoqli hayvonlar parvarish qilinganligi to'g'risida fikr-mulohazasini ma'lum qilgan [11.2014-B .120].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa.

TAHLIL VA NATIJALAR. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida qayd qilingan temir davri aholisi chorvachilik xo'jaligi rivojlanishi, jarayoni, hamda ajdodlarimiz ma'naviy dunyosida chorva mollariga bo'lgan munosabatini haykallar misolida aks ettirganligi masalalari tahlil qilindi, shu asosda natijalar qayd qilindi. Bronza davrida voha aholisi qo'y, echki va tuya haykalchalari, hunarmandchilik sohasida yangi bilim sifatida mustaqil alohida rivojlanishi masalalaridan, temir davrida haykalchalar sari bosib o'tgan yo'li, uning takomillashish jarayonlari masalasida natijalar belgilab olindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xorazm vohasi geografik manzara jihatidan Zarafshon vodiysi shimoliy o'rta va janubiy hududlardan ko'kka bo'y cho'zgan tog'lardan xoli ekanligini kuzatish qiyin emas. Mil.avv. VI asr so'nggi choragidan V asr tarixiy davrida voha aholisining temir ashyosini ixtiro qilib, undan yasagan mehnat qurollari va chorvachilikka oid haykalchalariga

tayanib, ularning ma'naviy dunyosi, tevarak-atrof ekologik jarayonlarini o'rganishi bo'yicha xulosalar qilishdi.

Takliflar:

- 1.Chorvachilik xo'jaligi tarixi ildizini oydinlashtirish;
- 2.Chorvador aholining yengil tuyoqli hayvonlarni saqlash imkoniyati;
- 3.Mil.avv.X-V asr aholi chorvachiligi tarixini hozirgi zamon bilan qiyoslash masalasi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганской долины. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1966. – 245 с.
2. Хуфф Д., Шайдуллаев Ш.Б. Некоторые результаты работ Узбекско-Германской археологической экспедиции на городище Джаркутан. Самарканд, 1999.
3. Итина М.А. Поселение Якка-Парсан 2 (раскопки 1958–1959 гг.) // Материалы по археологии, истории и этнографии Средней Азии. – Вып. VI. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963. – С. 160–175.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм-М:МГУ 1948.
- 5.Воробьева М.Г. Дингильджа. Усадьба середины I тысячелетия до н.э. в Древнем Хорезме-М:Наука, 1973- 220 с.
- 6.Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма-М.: Наука, 1979.
7. Цалкин В.И. Древнее животноводство племен Восточной Европы и Средней Азии //МИА-М, Наука, 1966. № 135-С.109.
8. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1977. – 194 с.
9. Яблонский Л.Т. Саки южного Приаралья (археология и антропология Могильников/-М, Институт археологии РАН, 1996.
10. Яблонский Л.Т. Раскопки Курганов в Северной Туркмении //Ао 1983-М, Наука 1985.
11. Матякубов Х.Х. Хоразм воҳаси бронза ва илк темир даври тарихи. -Тошкент, 2014.

